

## XOJA AHMAD YASSAVIY HIKMATLARIDA ISHQ TALQINI

Zokirova Marjona Zafar qizi

Xalqaro innovatsion universiteti

O'zbek filologiyasi va jurnalistika 1-kurs talabasi

Azizova Madina Muhiddin qizi

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20321624>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turkiy adabiyotining ilk mutasavvif shoiri Xoja Ahmad Yassaviy ijodida "ishq" tushunchasining mohiyati, uning ilohiy va falsafiy talqinlari tahlil qilinadi. Muallif hikmatlarida ishq tushunchasini insonning Haqqa intilishi va ma'naviy-ruhiy kamolot vositasi sifatida, qalbni poklovchi qudratli kuch ekanligi tadqiq etildi.

**Kalit so'zlar:** Ahmad Yassaviy, Devoni hikmat, tasavvuf, ishq, oshiq, ma'rifat, "chin oshiq", "yolg'on oshiq", Haq ishq.

### Kirish

Turkiy xalqlarning ma'naviy kamolotida beqiyos o'rin tutgan "Piri Turkiston" — Xoja Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari necha yuzyilliklar davomida insoniyatni hidoyatga, axloqiy-ruhiy poklikka va ilohiy haqiqatga, ma'rifatga chorlab kelmoqda. Yassaviy hikmatlarida komillikka targ'ib etuvchi eng oliy tushuncha bu — Ishqdur. Ammo Yassaviy talqinidagi ishq oddiy insoniy tuyg'u emas, balki koinotning yaratilish sababi bo'lgan Ilohiy ishqdir.

### Ishq — Ilohiy mohiyat sifatida

"Tariqatning barcha masalalari – hol va fano, botin va zohir, hayrat va tavhid, behudlik va devonalik va hokazolar ishq tushunchasi orqali anglashiladi va tushuntiriladi. Ahmad Yassaviy o'zini "Haq taolo partavidan" bahramand bo'lgan, go'dakligida ilohiy ishq "jazbasi" teggan kishi ekanini faxr bilan tilga oladi. Ma'lum bo'ladiki, valiylik, kashf-u karomat iste'dodining nishona berishi ham ishqdandir.

Ishq bog'ini mehnat tortib ko'kartmasang,  
Xorlik tortib, shum nafsingni o'ldirmasang,  
Alloh deyub ichga nurni to'ldirmasang,  
Valloh-billoh, senda ishqning nishoni yo'q"<sup>1</sup>.

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Haq insonni O'zini tanishi va sevishi uchun yaratgan ("Men yashirin xazina edim, tanilishni istadim" hadisi qudsiysiga binoan). Yassaviy hikmatlarida ishq — insonni Haqqa yetkazuvchi yagona va eng qisqa yo'l sifatida ta'riflanadi:

"Shumlug'umdin tog'-u toshlar so'kti mani,  
Fasih tilde so'kub aydi: "Tuhfang qani?  
Oshiq bo'lsang avval borib haqni tani!",  
Malul bo'lub yer ostig'a kirdim mano"<sup>2</sup>.

"Devoni hikmat" asaridagi quyidagi misralarda ilohiy ishq vositasida sufiylarga xos valiylik sifatleri namoyon bo'lganini ko'rish mumkin:

"Har subhidam ovoz keldi quloqimg'a,  
"Zikr ayt!" dedi, zikrin aytib yurdum mano.  
Ishqsizlarni ko'rdum ersa yo'lda qoldi,  
Ul sababdin ishq do'konin qurdum mano

<sup>1</sup> N.Komilov. "Tasavvuf". - Toshkent, "Movarounnahr", 2009.

<sup>2</sup> Nodirxon Hasan. "Xoja Ahmad Yassaviy". - "Navro'z", 2018.

Nido kelgay ilohimdin «do'stum» dedi,  
 Bag'ri kuyub, yoshin to'kub, ko'b yig'ladi,  
 Xorliq, zorliq, mashaqqatni rohat bildi,  
 Yig'lab yurgil, ko'z yoshini riyosi yo'q."<sup>3</sup>

"Oshiq bo'lish uchun muhabbat bog'iga kirish lozim, biroq buning uchun, avvalo, nafsni o'ldirish kerak. Holbuki, butun bu azoblarga, fojealarga rizolik kerak. Ishq injusini topishni istagan bir qatra — tomchiga qanoat qilishi darkor. Ishq otashida yongan haqiqiy oshiqlarning rangi so'nadi. O'zi hayron, ko'ngli vayron, ko'zlari yoshga to'ladi. Rasuli Akram "ad-Dunya jiyfa va tolibha kilab" buyurmishlar. Haqiqiy oshiqlar jondan kechib jononga, Haq visoliga tolib bo'lganlardir. Ey Xoja Ahmad, doimo Haqni yod et va yig'la. Erta-yu kech namoz o'qi, ro'za tutki murodingga erishsan..."<sup>4</sup>

Yuqoridagi matnda keltirilgan "**ad-Dunya jiyfa va tolibha kilab**" (الدنيا جيفة وطلابها كلاب) jumlasini mashhur hikmat bo'lib, "*Dunyo — o'limtik (harom o'lgan hayvon), uning talabgorlari esa itlardir*" degan ma'noni anglatadi. Bu hikmat orqali insonning hoyu havasga berilib, moddiy dunyoga bog'lanib qolmasligi, aksincha, ruhiy poklanishi, Haq ishqiga intilishi lozimligi uqtirilmoqda. Shuningdek, orif, oshiqlar dunyoga nazar solmasligi, ishqsiz odam hayvondan battarligi uqtiriladi:

“Orif, oshiq o'z jonini o'tqa solmas,  
 Bedardlarga ishq chaqmoqin boqib chaqmas.  
 Dunyo kelib jilva qilsa nazar solmas,  
 Ishqsiz odam bahoyimdin batar do'stlar.

Ishqsiz odam odam ermas, Haqdin payom,  
 Qayda ko'rsang ishqsizlarga qilmang salom.  
 So'z so'zlasa boqib, onga qilmang kalom,  
 Munda yig'lab, oxiratta kulmasmusan?"<sup>5</sup>

Yassaviy nazdida ishqsiz inson hayotining ma'nosi yo'q, u ruhsiz jasad, jonsiz jism kabi beqadr. Ishq — ruhning asliyatiga, ya'ni Haqqa yetkazuvchi gavhardir:

“Ishqsizlarni ham joni yo'q, ham iymoni,  
 Rasululloh so'zin aydim, ma'no koni..."<sup>6</sup>  
 “Ishq guhari tubsiz daryo ichra pinon,  
 Jondin kechib guhar olg'on bo'ldi jonon”<sup>7</sup>.

### **Yassaviy hikmatlarida ishq va oshiqlik tushunchalari**

Yassaviy talqinida oshiq bo'lish — bu oshiqlikni da'vo qilishgina emas, balki "nafsni yengish" va "o'zlikdan kechish"dir. Oshiq Haq yo'lida har qanday mashaqqatga tayyor turishi lozim. Hikmatlarda ishq ko'pincha o't-olov, oshiq esa kuyib-yonuvchi timsollarida keladi:

“Oshiq kuysa xos ma'shuqi birga kuygoy,  
 Bulhavaslar kuymay turub jondin to'yg'oy.  
 Chin oshiqlar kuygan sari purnur bo'lg'oy,  
 Kuymak-yonmoq oshiqlarga bozi bo'lg'oy

<sup>3</sup> Yuqoridagi manba.

<sup>4</sup> Mehmed Fuad Ko'prulu. "Turk adabiyotida ilk mutasavviflar". – Toshkent. "Akademnashr", 2024

<sup>5</sup> Nodirxon Hasan. "Xoja Ahmad Yassaviy". - "Navro'z", 2018.

<sup>6</sup> Nodirxon Hasan. "Xoja Ahmad Yassaviy". - "Navro'z", 2018.

<sup>7</sup> Yuqoridagi manba.

Qulman degan doim tinmay zikrin aytar,  
 Ishq o'tig'a kuyub-yonib faryod etar.  
 Nechalari umrin bilmay yelga sotar,  
 G'aflat bilan jahannamga ketar ermish"<sup>8</sup>.

Bu yerda chin oshiqlar kuygan sari yana-da nurlanishi, oshiqlar tinmay zikr aytishlari – oshiqning dunyoviy lazzatlardan voz kechib, tunlarni ibodatda, kunlarni esa Haq yodida o'tkazishining ramzidir. Yassaviy uchun haqiqiy oshiq – malomatlarga chidagan, moddiy dunyo matosidan kechgan va borligini Haq yo'liga fido qilgan, kuyib-yonuvchi kishidir.

### **Ishq va ma'rifat**

Yassaviy hikmatlarida ishq faqatgina his-tuyg'u emas, balki ma'rifat (Haqni bilish, anglash) bilan chambarchas bog'liq. "Ishq bo'lmasa, ma'rifatga yo'l yo'q" degan g'oya ilgari suriladi. Inson Haqqa bo'lgan ilohiy ishq ortib borgani sari Uni ko'proq taniydi (ma'rifat hosil qiladi).

Oshiq bo'lish uchun "fano" bosqichidan o'tish shart. Yassaviy o'zining mashhur "oltmish uchda kirdim yerga" degan iqrorida o'zlikdan kechganlik va ishqning komil bo'lganligi o'z ifodasini topgan. Bu — "o'limdan oldin o'lmoq" (mavtu qabla an tamutu) falsafasining yuksak namunasidir:

Oshiqlarning sunnatidir tirik o'lmak,  
 Oqil bo'lsang, go'ristondan xabar olg'il.  
 Man ham shundog' bo'lurman deb ibrat olg'il,  
 "Mavtu qabla anta mavtu" g'a amal qilg'il "

### **Ishqning ijtimoiy va axloqiy ahamiyati**

Yassaviy hikmatlaridagi ishq talqini faqatgina ilohiy xarakterga ega bo'lib qolmay, u jamiyatni isloh qilish vositasi hamdir. Ishq bilan yo'g'rilgan qalbdan adovat, hasad, kibr va ochko'zlikka o'rin qolmaydi. Haqiqiy oshiq g'arib-miskinlarga yordam beradi, yetimlarning boshini silaydi, chunki u har bir maxluqda Xoliqning jilosini ko'radi.

Oqil ersang g'ariblarni ko'nglin ovla,  
 Mustafodek elni kezib yetim kovla,  
 Dunyoparast nojinslardin bo'yun tovla,  
 Bo'yun tovlab, daryo bo'lub toshtim mano.

### **Xulosa**

Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarida ishq — bu insoniyatni ma'naviy-ruhiy poklovchi, qalbni zanglardan tozalovchi va uni Ilohiy nurning jilvagohiga aylantiruvchi buyuk tushunchadir. Hikmatlarda Ishq tushunchasi talqini asosiy o'rinni egallash bilan birga unga yondosh tarzda "ishq do'koni", "ishq yo'li", "muhabbat sharobi", "ishq guhari", "ishq chaqmog'i", "pok ishq", "ishqqa qadam qo'ymoq", "Haqqa oshiq", "chin oshiq", "yolg'on oshiq", "ishq daftari", "ishq dardi", "ishq bozori", "xumi ishq", "ishq partavi", "ishq maqomi", "ishq bog'i", "oshiq", "ma'shuq" kabi so'z va iboralar orqali ifodalangan. Ishqning Yassaviyga xos talqini bugungi kunda ham insonlarni ma'naviy birdamlikka, poklikka va o'zligini anglashga xizmat qiladi. Uning hikmatlari ishqsiz qalb o'lik ekanligini, insoniyatning najoti esa faqat Haqqa va Uning yaratganlariga bo'lgan cheksiz muhabbatda ekanligini uqtiradi.

### **References:**

1. N.Komilov. "Tasavvuf". - Toshkent, "Movarounnahr", 2009.

<sup>8</sup> Yuqoridagi manba.

2. Nodirxon Hasan. “Xoja Ahmad Yassaviy”. - “Navro‘z”, 2018
3. Mehmed Fuad Ko‘prulu. “Turk adabiyotida ilk mutasavviflar”. – Toshkent. “Akademnashr”, 2024
4. N.Komilov. "Tasavvuf". - Toshkent, "Movarounnahr", 2009.